



MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

F.X. Xoliyarova

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali dotsenti

e-mail: fer.xoli.xafi@gmail.com

Yu.Sh. Normatova

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali assistenti

e-mail: normatovay@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlarni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, innovatsion, kreativlik qobiliyat, pedagogik texnologiya, mantiqiy fikrlash, didaktik, interaktiv ta'lim.

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning



yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatleri va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi[1].

SHuningdek, tinglovchilar pedagogik innovatsiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llaridan xabaror bo'ladi, innovatsion xarakterga ega mualliflik dasturlarini ishlab chiqish malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida barpo etilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida o'quv adabiyotlarining yangi avlodi bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslanib tayyorlangan o'quv adabiyotlarini yaratishning samarali tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ishning asosiy natijalari va ilmiy jihatidan yangiliklari quyidagilardan iborat:

- innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslanib tayyorlangan o'quv uslubiy majmualarni yaratish tizimining hozirgi holati tahlil qilindi;
- innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslanib tayyorlangan o'quv uslubiy majmualarni yaratish tizimining nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi;
- innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslanib tayyorlangan o'quv uslubiy majmualarni yaratish tizimining samaradorligini oshirish yo'llari, ko'rsatilgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

O'qitishning interaktiv uslublari

Interaktiv o'qitish - talaba o'zida oldin mujassamlashgan ajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida shaxsiy rol o'ynab, yangi tajribalar orttiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o'ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o'zining kundalik faoliyati bilan bog'laydi.

“Bumerang” texnologiyasi. Mazkur texnologiyada talabalarga turli xil ko'rinishdagi (ochiq, yopiq, ko'ndalang) savollar beriladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirish imkoniyat yaratadi, o'z g'oya va fikrlarini og'zaki yoki yozma shakllarda bayon etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ochiq savollar



muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. YOpiq savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” usulidagi to‘g‘ri, qisqa javoblarni berishni ko‘zda tutadi. Ko‘ndalang savollar bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollardan iborat bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni aniqlashtirish, boshqalar fikrini aniqlash va muayan qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishilmaydi[2].

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatdao‘rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo‘naltirilgan.

Bu esa o‘z navbatida o‘qitish jarayonida talabalarning faolliklarini ta‘minlash, ta‘lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Aripov, A.Madraximov. Informatika, informatsion texnologiyalar Darslik. - T.:TDYUI, 2004 y.
2. D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. -T.: “TDPU”, 2013, -116 bet.
3. Мингбоев У., Джумаев С., Синдоров А. Maktab o‘quvchilari uchun moljallangan android ilovaning bikoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 188-191.
4. Djumayev S. N., Shodmonov D. A., Ortiqova N. E. Ta’limda mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari: Possibilities of Using Mobile Applications in Education //INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 90-95.
5. Mingboyev Ulug‘bek S. A., Djumayev Sindor O. N. E. TA’LIMDA FOYDALANILADIGAN MOBIL ILOVALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 279-282.